

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA IJTIMOY HIMOYANING USTIVOR YO‘NALISHLARI

D.Sholdarov

*TDIU “Byudjet hisobi va g‘aznachilik ishi”
kafedrası mudiri PhD, prof.*

Har bir jamiyatda aholining siyosiy, huquqiy, milliy tomondan himoyalash mavjud bo‘lib, jamiyat a‘zolarining ma‘lum tabaqalarini turli sharoitlarda ijtimoiy himoyalash ham zaruratga aylanadi. Aholining bunday qatlamlari nogironlar, nafaqaxo‘rlar, yosh bolalar, boquvchisiz qolgan oila a‘zolari iqtisodiy himoyaga muhtojlardan hisoblanib, aholining bunday qismlarini davlat markazlashgan aholini ijtimoiy himoyalashni tashkil etgan tizimi orqali ijtimoiy himoyalash amalga oshiriladi.

Zamonaviy sharoitda ijtimoiy himoya ijtimoiy tengsizlikning o‘shishiga, aholi ijtimoiy tabaqalanish jarayonining chuqurlashishiga imkon bermaslikning samarali vositasiga aylandi. Ijtimoiy me‘yorlar talablariga muvofiq fuqarolarga maqbul turmush sharoitlarining yaratib berilishi turmush darajasining o‘shishiga, aholi yashash sifati yaxshilanishiga, jamiyat farovonligini oshirishga yordam beradi.

Jahon tajribasi amaliyotlarida qabul qilingani kabi onalikni himoya qilish va vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik bo‘yicha nafaqalarini ijtimoiy sug‘urta tizimiga kiritish hamda Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasini tashkil etish masalasi o‘rganiladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi ijtimoiy xavfsizlikni insonning asosiy huquqi sifatida tan olish uchun asos yaratadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi insonlarning farovonligini qo‘llab-quvvatlash uchun sog‘liqni saqlash, ta‘lim va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ta‘minlash muhimligini ta‘kidlaydi¹.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti(XMT) bugungi kunda insonning asosiy huquqi sifatida ijtimoiy himoyani ilgari surmoqda. XMTning 2012 yildagi ijtimoiy himoya bo‘yicha 202-sonli tavsiyanomasi mamlakatlarni barcha muhtoj shaxslarga tegishli moliyaviy yordam ko‘rsatadigan keng qamrovli ijtimoiy himoya tizimlarini yaratishga chaqiradi².

Mamlakatimizda ijtimoiy himoya bo‘yicha milliy strategiyaning qabul qilinishi BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari kambag‘allikni kamaytirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish hamda ayollar, erkaklar, shu jumladan yoshlar va nogironlarni to‘liq, foydali va munosib ish bilan ta‘minlashga erishishga yordam berishi kutilmoqda. So‘nggi yillarda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, ijtimoiy himoya sohasiga O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar miqdorini oshirish va qo‘shimcha

¹ "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" (10.12.1948) Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko‘rsatmasi orqali qabul qilingan va e‘lon qilingan.

² "Ijtimoiy himoya qilishning minimal darajalari bo‘yicha" 202-sonli tavsiyanoma, 2012-yil, XMT

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

resurslarni jalb qilish, ijtimoiy himoya dasturlari qamrovini kengaytirish va oilalarni og‘ir hayotiy holatlardan olib chiqishga qaratilgan qo‘shimcha mexanizmlarni joriy etish yo‘nalishlarida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, kam ta‘minlangan oilalarni aniqlash va ularga manzilli yordam ko‘rsatish maqsadida “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi joriy qilinishi, kam ta‘minlangan oilalardagi bolalarni parvarishlash uchun to‘lanadigan nafaqa qamrovi kengayib, nafaqa tayinlashda inobatga olinadigan bolalar yoshi 14 yoshdan 18 yoshgacha oshirildi, mazkur to‘lov muddati 6 oydan 12 oygacha hamda nafaqa miqdori o‘rtacha 1,5 barobarga oshirilishi, ishsizlik nafaqalarining eng kam miqdorlari 3,2 baravarga oshirildi, aholini bandligini ta‘minlashga qaratilgan 20 dan ortiq yangi instrumentlar joriy etildi³.

Aholi turmush darajasini yanada yaxshilash va ijtimoiy himoya qilishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida, ijtimoiy yordamga muhtoj va ijtimoiy nafaqa tayinlash mezonlariga javob beradigan barcha oilalar va shaxslarni ijtimoiy yordam dasturlari bilan qamrab olinishi, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirilishi, nogironlikni belgilashning ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o‘tish hamda imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligini ta‘minlash, aholining muhtoj qismini zamonaviy protez-ortopediya buyumlari va rehabilitasiya vositalari bilan ta‘minlash va ijtimoiy xizmatlarni aholiga bevosita mahalla darajasida ko‘rsatish amaliyotini joriy etish belgilandi.

Ijtimoiy himoyani ayrim toifadai insonlar daromad manbaiga aylantirib sohta xujjatlar asisida byudjet mablag‘larini o‘zlashtirish holatlari kuzatilmoqda. So‘nggi oylarda kam ta‘minlangan oilalar manzilli o‘rganilgani hamda tizim shaffof qilingani natijasida doimiy daromadga ega oilalar bunday toifadan chiqarilgan. Bu borada yagona savolnoma joriy qilinadi. Xonadonga “mahalla yettiligi”ning qaysi vakili kirishidan qat‘iy nazar, oiladagi muammo va imkoniyatlar aniqlanib, “ijtimoiy portreti” chiziladi. Yordamdan so‘ng xonadonda nima o‘zgargani monitoring qilib boriladi. Bu yerda gap mablag‘ni qisqartirish haqida emas, uni o‘z egasiga – haqiqiy muhtojlarga berish va jamiyatga integrasiya qilish haqida ketmoqda. Yana bir muhim jihati, mahalladagi barcha ijtimoiy xizmatlarni bosqichma-bosqich ijtimoiy xizmat ko‘rsatish shartnomasi orqali taqdim etish yo‘lga qo‘yiladi. Bunda xizmat ko‘rsatuvchi ham, yordam oluvchi ham o‘ziga majburiyat oladi. Endi nafaqa oluvchilar ro‘yxatiga, birinchi navbatda, nogironligi bor, ota-onasi yo‘q, boquvchisini yo‘qotgan, kasalligi va boshqa sababga ko‘ra uzoq muddat ishlay olmaydiganlarning oilalari kiritiladi. Boshqa fuqarolarni “ijtimoiy reyestr”ga kiritishda ularning faqat daromadi emas, balki xarajatlari ham baholanadi⁴.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish va inson qadri davlat siyosatining poydevoridir. Xususan,

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси аҳолисини ижтимоий ҳимоя қилиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” 2022 йил 25 июлдаги ПФ-175-сон Фармони.

⁴ Sh.Mirziyoyev. “Ijtimoiy himoyaning yangi tizimi inson qadrini ta‘minlashga xizmat qiladi”. Xaq so‘zi. 2024 yil 21 fevral.

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

bunda aholini ijtimoiy himoya qilish masalasi alohida ahamiyatga ega. Davlatimiz tomonidan kam ta'minlangan oilalar, ayollar, yoshlar, keksalar, shuningdek, nogironlarga har tomonlama yordam ko'rsatilmoqda. Ko'rsatilayotgan yordam manzillidir, ya'ni faqat ehtiyojmand odamlarga beriladi. Uning maqsadi odamlarga hayotdagi qiyin damlarni yengib o'tishga yordam berish, ularda kelajakka ishonch uyg'otishdir.

Adabiyotlar:

1. Umarov Z.A. Tijorat banklarida kredit operatsiyalari hisobi va auditing nazariy-uslubiy masalalari / Monografiya, IQTISOD-MOLIYA, 2021 yil, 127 b.
2. Toymuxamedov I., Umarov Z., Xusainov G. Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to'lov tizimi. O'quv qo'llanma. – 2018.
3. Umarov Z.A. Banklarda buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.: “Innovatsion rivojlantirish nashriyot-matbaa uyi” 2021, 612 b.
4. Umarov Z.A. Yangi bank xizmatlari, ularni rivojlantirish Bozor, pul va kredit jurlali №1 2019 y.
5. Юлдашев, Ж. А. ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА МИЖОЗЛАР БИЛАН МУНОСАБАТЛАР ҲОЛАТИНИ БАҲОЛАШ УСУЛИНИ ТАКОМИЛАШТИРИШ.
6. Qlichev Baxtiyor Pardayevich. (2024). Xo'jalik yurituvchi subyektlarda CVP-tahlilni tashkil etishning muammoli jihatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 4 (2024), 754–759
7. Klichev Bakhtiyar Pardayevich. (2024). Problematic Aspects of Organizing Cvp-Analysis in the Enterprises of Uzbekistan // Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 5(5), 241–248. Retrieved from <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/4906>
8. Kholdorov Sardor Umarovich. (2024). LIQUIDITY RISK MANAGEMENT IN THE BANKING SECTOR: CHALLENGES, STRATEGIES AND IMPLICATIONS. World Scientific Research Journal, 26(3), 122–131. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3255>
9. Qlichev Baxtiyor Pardayevich. (2024). Korxonalarda operatsion faoliyat samaradorligini tahlil qilish masalalari. *World Scientific Research Journal*, 26(3), 86–94. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3251>
10. Косимович, Я. У. (2024). Ташқи савдо фаолиятида мақбул ечимни топиш масалаларини таҳлили. *World scientific research journal*, 26(2), 199-205.
11. ҚЛИЧЕВ, . Б. П. (2022). ИШБИЛАРМОНЛИК ФАОЛЛИГИ ТАҲЛИЛИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *Архив научных исследований*, 2(1). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/373>

12. Choriev I.X. Auditorlik faoliyatida tahliliy amallarni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent:, «Iqtisod-moliya»nashriyoti, 2021, - 21-26 b.
13. Кличев, Б. (2023). Корхоналарда маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми таҳлилини такомиллаштириш масалалари. *Направления развития благоприятной бизнес-среды в условиях цифровизации экономики*, 1(01), 170–173. <https://doi.org/10.47689/TSUE2022-pp170-173>
14. Qlichev, B. (2024). Korxonalar faoliyatini rivojlantirishda operatsion faoliyat tahlilining zarurligi. *Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, Konferensiya to'plami. Termiz, O'zbekiston. 15-iyun 2024-yil.* <https://doi.org/10.5281/zenodo.11909171>
15. Yakupbaevich, I. J. ., Abrarovich, Y. J. ., Akhtamovich, H. S. ., & Bekmurodova. (2023). COMMERCIAL BANKING, CREDIT OPERATIONS, PROVISION OF COLLATERAL, ASSESSMENT MECHANISMS. *FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI | JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION*, 2(4), 6–13. Retrieved from <https://mudarrisziyo.uz/index.php/innovatsiya/article/view/251>
16. Қличев Бахтиёр Пардаевич, (2023). Корхоналарда маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми таҳлилини такомиллаштириш масалалари. *Issues of improving the analysis of the volume of production at enterprises. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 13(7), 42–49. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/2782>
17. Abdullayev, A., & Djamalov, H. (2023). ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF THE INTERNAL CONTROL SERVICE FOR THE FULFILLMENT OF TAX OBLIGATIONS OF ENTERPRISES. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 8(4), 297-307.
18. Худоёров О.О. (2023). Банк тизимини рақамлаштириш шароитида рақамли банк технологияларини жорий қилиш . *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 13(7), 99–107. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/2788>
19. Xudoyorov, O. O. (2023). Bank daromadlarini oshirishda masofaviy bank xizmatlarini tutgan o‘rni.
20. Odilovich, K. O. (2024). IMPACT OF REMOTE BANKING SERVICES ON BANK INCOME. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*, 12(6), 82-86.
21. Majidov, J. K. (2019). Ways of improving management of credit portfolio at commercial banks. *International Journal of Research in Social Sciences*, 9(3), 725-736.
22. Мажидов Ж. (2024). Тижорат банклари активлар портфелларининг сифатини ошириш бўйича хориж тажрибаси ва унинг ўзига хос хусусиятлари. (2024). *Ustozlar Uchun*, 1(4), 1463-1467. <https://pedagoglar.org/index.php/02/article/view/3878>